

ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI IJTIMOY HAYOTGA MOSLASHTIRISH

Sobirjonova Azizabonu Baxodir qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim metodikasi”

Kafedra PhD, Dotsent N.S. Musayeva
Toshkent Kimyo xalqaro universitet
Special pedagogy fakulteti talabasi
azizaboxodir04@gmail.com
+998881053245

Annotatsiya

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, va ularga ijtimoiy emotsional yordam berishga va shu jumladan mashxur shaxslarni shu yo’nalish uchun yozgan ishlari va eshitishida nuqsoni bor bolalarga imo-ishora darslarini olib borish tartibi va ularni kasbga yo’naltirish metod va usulari haqida barcha ma’lumotlar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Eshitishida nuqsoni bo’lgan bola, Kar bolalar, Emotsional, Moslashtirish, Zaif eshituvchi bolalar, Eshitish qobiliyati, Imkoniyat, Interaktiv, Muloqot, Imo-ishora, Logopediya, Surdopedagog.

Аннотация:

В данной статье речь идет об адаптации детей с нарушениями слуха к социальной жизни, оказании им социально-эмоциональной поддержки, в том числе о произведениях, написанных известными людьми по этому направлению, о порядке проведения уроков жестов для детей с нарушениями слуха, о методах и способах их проведения. методы направления их в профессию, вся информация изложена подробно.

Ключевые слова: Слабослышащий ребенок, Глухие дети, Эмоциональный, Адаптация, Слабослышащие дети, Слуховые способности, Возможность, Интерактив, Общение, Жест, Логопед, Глухой педагог.



Annotation:

This article is about the adaptation of children with hearing impairments to social life, providing them with socio-emotional support, including works written by famous people in this field, the procedure for conducting sign lessons for children with hearing impairments, methods and techniques for conducting them . . methods for directing them into the profession, all information is presented in detail.

Keywords: Hearing impaired child, Deaf children, Emotional, Adaptation, Hearing impaired children, Hearing abilities, Opportunity, Interactive, Communication, Gesture, Speech therapist, Deaf teacher.

So'nggi yillarda bolalar o'rtasida eshitish qobilyatini yo'qotishga, sog'liqni saqlash sohasiga muhim ahamiyat berilmoqda. CDC ma'lumotiga ko'ra, har yili yangi tug'ulgan chaqaloqlarni skriningdan so'ng AQSHda har 1000 chaqaloqqa 1.8 ga doimiy eshitish qobilyati tashxisi qo'yiladi. Ushbu statistik ma'lumotlar ta'sirida bolalarga o'z vaqtida yordam va aralashuvni taminlash uchun erta aniqlashni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, JSST tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab 34 millionga yaqin bolalar eshitish qobilyatini zaiflashishi bilan aralashuvni talab qiladigan darajada og'ir ahvolda, past va o'rta daromadli mamlakatlarda keng tarqalgan. Kasalilkning tarqalishi yoshi bilan o'sib boradi va baland tovushlar, infeksiyalar va genetik sharoitlar kabi omillar ta'sir qilishi mumkin.

Kattaroq bolalar va o'smirlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 15% gacha eshitish qobilyatining yo'qolishi ko'pincha shovqin ta'siri yoki boshqa oldini olish mumkin bo'lmagan sabablariga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bu keng tarqalgan xavfsiz tinglash analiyoti, muntazam skrining bolalarga eshitishda yordam berish uchun erta davolash muhurligini ta'kidlaydi.

Qo'shma Shtatlarda eshitish qobilyatini yoqotgan odamlar taxminan 53 foizi ish bilan taminlangan, ularning eshitish qobilyati tahminan 75 foiz. Bu bo'shliq qo'shimcha kasaliklar va yosh irq va jins kabi demografik omillar mavjudligiga qarab o'zgaradi. Misol uchun, eshitish qobilyatini yoqotgan va kognitiv nuqsoni bo'lgan odamlar eng past bandlik ko'rsatgichiga ega va kar ayolar va kar erkaklarga nisbatan ko'proq ish haqi nomutanosibligini boshidan kechiradi.



Eshitish qobilyati zaif odamalarni ish bilan taminlash imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarga ta'lim olish imkoniyatini yaxshilash, inklyuzif ish joylarini targ'ib qilish va aloqa to'siqlarini bartaraf etish kiradi. Ba'zi tashabbuslar kar va eshitish qobilyati past jamoalar uchun uzoq muddatli ish bilan taminlash natijalarini yaxshilash uchun ixtisoslashtirilgan martaba tayyorlash dasturlari orqali kar yoshlarni kuchaytirishga qaratilgan.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalanayotkan ijtimoiy sharoit uning shaxs sifatleri shakllanishida muhum ahamiyat kasb etadi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda, ijtimoiy tajriba jarayonida bola shaxsi rivojlanadi. Atrofdagi ijtimoiy muhit bola ijobiy munosabatlar tizimidagi o'rnini anqlashga imkon beradi. Bu o'rinda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'z holatiga, shaxsiga munosabati katta ahamiyat kasb etadi.

Kar bolalarning emotsional doirasi rivojlanishiga ma'lum noxush omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'zlashuv muloqotining buzilishi kar bolani atrofdagilardan uzoqlashtiradi, ijtimoiy tajribani egalashda qiyinchiliklarni tug'diradi. Nutqining rivojlanishi orqada qolish bolani o'zini, boshqalarni emotsional holatini tushunishiga to'sqinlik qiladi, o'zaro munosabatlarni shakllanishini sekinlashtiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning hayotining birinchi kunlaridanoq atrofdagilar bilan to'liqsiz emotsional va nutqiy muloqot mavjudligi sababi ularning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiylashuvida qiyinchilik tug'diradi. Xususan, V. Petshak kar bolaning emotsional rivojlanish holatini tadqiq etgan.

Unda quydagi o'zaro bog'liq muammolar o'rganilgan:

I muammo – ijtimoiy sharoit ota-onalar eshitish qobilyatining saqlash darajasiga ko'ra maktabgacha va maktab yoshidagi kar bolalarning emotsional rivojlanish va munosabatlarni aniqlash.

II muammo – kar o'quvchilarning boshqa odam emotsional holatini tushunishi. Boshqalar ruhiy holatini tushunish darajasi bolaning emotsional holatini belgilaydi. O'zganing emotsional holatini tushunish uning yuz mimikasi, ovoz reaksiyaslar, nutqiy intonatsiyalar, imo-ishoralarni idrok etishga olib keladi.

Eshitishda nuqsoni bor insonlar turli kasblarda muvaffaqiyatli ishlashlari mumkin, ayniqsa, ularning qobilyati va qiziqishlariga mos keladigan kasb tanlanganda.

Quyidagi eshitishida nuqsoni bor insonlar uchun qulay bo'lgan ba'zi kasblar keltirib o'tilgan:

Dasturchi, veb-dizayner, grafik dizayner, UX/UI dizayneri kabi yo'nalishlar eshitish nuqsoni bo'lgan insonlar uchun juda qulay, chunki ular ko'pincha yakka tartibda yoki kichik guruxlar bilan ishlaydilar.

Texnologiya soxasida yozish, tahlil qilish va grafik manipulyatsiya kabi ko'nikmalar kerak bo'ladi, bu esa eshitish qobiliyatiga unchalik bog'liq emas.

Rassom, haykaltarosh, dizayner, fotograf kabi san'at bilan bog'liq kasblar eshitishida nuqsoni bor insonlar uchun mosdir. Bu kasb visual ijobiy fikrlash va qo'l mahoratiga bog'liq bo'lib kommunikatsiya uchun katta yordamchi vositalardan foydalanish mumkin.

Tikuvchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, keramika san'ati, bog'dorchilik, sartaroshlik kabi kasblar jismoniy va ijodiy mahoratni talab qiladi, ammo kommunikatsiya juda ko'p talab qilinadi. Ushbu kasblar eshitishida nuqsoni bor insonlar ga ishda erkin ishlash imkonini beradi.

Pazandachilik, qandolatchilik, pishiriq tayyorlash, novvoylik sohalarida ish topish ham mumkin. Ushbu kasblarda ish o'rnini ko'p bo'lib, o'z mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishi ham mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish, elektronika ta'mirlash, kompyuter uskunalari sozlash kabi texnik soxalar ham eshitishida nuqsoni bor insonlarga mos. Bunda faqat texnika bilan ishlash talab qilinadi, muloqot esa cheklangan.

Surdopedagog, imo-ishora tili oqtuvchisi kabi kasblarda ular boshqalarga yordam bera oladilar. Bu soxada o'z tajribalarini qo'llab, eshitishida nuqsoni bor bolalarga ko'mak berishadi.

Matematika, adabiyot, biologiya, fizika kabi tadqiqotlar bilan shug'ullanish uchun yozma va tahliliy ko'nikmalar kerak bo'ladi, lekin eshitishi cheklangan ta'sir ko'rsatmaydi.

Eshitishida nuqsoni bor insonlar uchun texnologik yordamchi vosita va maxsus dasturlar ham mavjud bo'lib, ularni yanada ko'proq kasblarda ishlash imkoniyati bilan ta'minlaydi. Muhimi, qobiliyat va qiziqishlarga qarab kasb tanlash, shuningdek, qo'llab-quvvatlash muhit yaratishdir.

Eshitishida nuqsoni bor bolalarni imo-ishora darslari ular uchun asosiy muloqot vositasi hamda ijtimoiy hayotga moslashishda ham xizmat qiladi.



Imo-ishora tilini o'rganish bolalarni o'z fikr va hissiyotlarini ifoda etish imkoniyatini oshiradi, ijtimoiy integratsiyani yaxshilaydi, hamda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi.

Imo-ishora darslari uchun tavsiyalar:

1-Erta boshlash:

Imo- ishora tilini erta yoshdan o'rgatish bolalar uchun o'z fikrlarini ifoda qilish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydali. Shu boisdan, maxsus maktabgacha ta'lim muassalarida darslarni boshlash tavsiya etiladi.

2-Interaktiv metodlar:

O'yinlar, vidodarslar, ilova va boshqa interaktiv metodlardan foydalanish darslarni qiziqarli va onson qabul qiladigan qilib beradi. Bu, ayniqsa, yosh bolalar uchun foydali.

3-Ota-onalarni jalb qilish:

Ota-onalarni imo-ishora tilini o'rganishga jalb qilish bolaga qo'shimcha motivatsiya beradi. Ularni qo'llab-quvvatlashi bolaga imo-ishora tilidan foydalanishda ko'proq imkoniyat yaratadi.

4-Qiziqishlarga asoslangan darslar:

Bolalarni qiziqishini inobatga olgan holda, imo-ishora darslari mavzularini kengaytirish orqali boyitish mumkin, masalan, san'at, sport, yoki texnologiya mavzularida imo-ishorani o'rgatish bolani ijtimoiy hayotga ham moslashtiradi.

5-Muloqot muhitini yaratish:

Maxsus tadbirlar, guruh mashg'ulotlari va imo-ishora tilida suhbatlar ham bolani ijtimoiy hayotga moslashtiradi va bolalarga muloqot qilish imkoniyatini oshiradi.

6-Professional yordam;

Surdopedagog va imo-ishora mutaxassislarining yordamida foydalanish darslarining samaradorligini oshiradi. Ular imo-ishora tilini o'rganishning eng yaxshi metodikalarini bilishadi va bolalarga indiyduval yondashuvni ta'minlaydi.

7-Boshqa fanlar bilan integratsiya:

Imo-ishora tilini matematika, adabiyot, tabiiatshunoslik kabi boshqa fanlar bilan integratsiya qilish darslarni kengroq qamrab olish va bolalarning umumiy bilimni oshirishga xizmat qiladi.



Imo-ishora darsi orqali eshitishida nuqsoni bor bolalarni jamiyat bilan erkin muloqotga kirishish imkoniyati va shu bilan birga ijtimoiy hayotga moslashtirish bo'lib, kelajakda mustaqil va faol hayot kechirishiga ham katta yordam beradi. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish ularga to'laqonli hayotda ishtirok etish imkonini beradi va ularning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

Bu jarayon uchun qator metod va usular qo'llaniladi:

1-Maxsus ta'lim:

Ushbu bolalar uchun maxsus maktablar va markazlar tashkil etish kerak. Ushbu muassasalar mutaxassisi logoped, surdotarjimon, defektologlar bilan ta'minlanishi kerak, ular bolalarga kerakli ko'nikmalarni shakllantiradi.

2-Maxsus texnologiyalar va jihozlar:

Eshitish apparati, koxlear implantlar, kompyuter va audiovizual materiallar shuningdek, maxsus dasturlar yordamida bolalarning imkoniyatlarini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar orqali ular atrofdagi ovozlarni eshitish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3-Nutqni rivojlantirish :

Logoped va surdotarjimonlar bolalarga til va nutq ko'nikmalarini o'rgatadi. Nutq terapiyasi va maxsus mashg'ulotlar orqali bolalarning o'z fikrini ifoda qilish qobiliyati rivojlanadi, bu esa ijtimoiy aloqalar o'rnatish uchun zarurdir.

4-Ijtimoiy integratsiya dasturlari:

Eshitishida nuqsoni bor bolalarni umumiy ta'lim maktablariga integratsiya qilish ularni ijtimoiy muhitka tayyorlash muhimdir. Shuningdek, ular uchun jamiyatda ijtimoiy madaniy tadbirlarda qatnashish imkoniyatlari yaratish kerak.

5-Ota-onalar va jamiyatni jalb qilish:

Ota-onalarni qo'llab-quvvatlash juda muhim. Ularni maxsus treyning va maslahatlar bilan ta'minlash orqali farzandlarining rivojlanishida faol ishtirok etishlari mumkin. Shu bilan birga, jamiyatni ham habardor qilish va bolalarni qollab-quvvatlash muhim.

6-Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash:

Eshitishida nuqsoni bor bolalarni psixologik qiyinchiliklar ham bo'lishi mumkin, masalan, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, atrofdagilar bilan o'zaro muloqotda



qiyinchilik. Maxsus psixologik mashg'ulotlar orqali ularga ijtimoiy muhitda o'zlarini erkin his qilish ko'nikmasi beriladi.

7-Maslahat markazlari va kasb o'rgatuvchi kurslar:

Eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus maslahatchilar va kasb-hunar o'qituvchi markazlar xizmatlarida foydalanish ham ularning kasb tanlash yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu yondashuvlar yordamida eshitishida nuqsoni bor bolalar ham o'ziga mos kasb tanlab, mustaqil va muvaffaqiyatli hayot kechirishga erishishlari mumkin.

Xulosa:

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun doim qo'llab-quvvatlash va o'qitish zarur. Bu yo'nalaishdagi harakatlar ularning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova.-T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2022
2. M.U. Xamidova "Maxsus pedagogika"-T.: "Fan va texnologiya", 2018.
3. Elektron resurs.

